

O'ZBEK TILI LUG'AT TARKIBIDAGI HARBIY ISTORIZMLAR



Abstract:

Mazkur maqolada tilshunoslikdagi eskirgan so'zlarning kelib chiqishi, ularning turlari hamda harbiy istorizmlar haqida so'z yuritiladi.

Key words:

lug'at, istorizm, sadoq, shamshir, mingboshi, ellikboshi, navkar, sarbon, sovut

Author of the article:

Fatxullayeva
Fayoza

Workspace (Education subject)

Chirchiq davlat pedagogika
universiteti 2-bosqich talabasi

Tilshunoslik o'z ichiga juda ko'p sohalarni qamrab olgan. Ayni sohalarni o'rganish davomida biz, albatta, eskirgan so'zlarga duch kelamiz. Negaki, tilshunoslik keng ma'noda o'rganilib, uning har bir sohasi bir-biriga chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham eskirgan so'zlarning tilshunoslikda ahamiyati juda katta. Eskirgan narsa va hodisalarning eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan, tarixiy nomlariga istorizm yoki tarixiy so'zlar deyiladi. Istorizm yunoncha so'z bo'lib, historia «tekshirish», «tadqiqot» demakdir. Masalan, qul, cho'ri, quloq, batrak, noib, parvonachi, sadr, jarchi, jallod kabi. Istorizmlar bu turli xil sabablarga ko'ra hozirgi kunda nutqda qo'llanilmaydigan so'zlarning maxsus guruhi hisoblanadi. Bu so'zlarga qadimda qo'llanilgan lekin hozirda umuman qo'llanilmaydigan so'zlar kiradi. O'zbek tili leksikasida istorizmlarning juda ko'p guruhlari mavjud. Masalan, 1) kasb-hunar, mansab, amal, unvon nomlari: sulton, xon, qul, darvesh, amin, zakotchi, jallod, farrosh, chorakor va boshqalar; 2) maktab, maorifga oid tushunchalarning hamda bazi hujjatlarning nomlari: mulla, xalfa, abjad, haftiyak, vasiqa, vaqf, mahzar va boshqa; 3) harbiy tushunchalarning nomlari: shamshir, sovut, sadoq (oqdon), sarboz, navkar va boshqa; 4) oziq-ovqat nomlari: komach, zogora, yorma, boda (may), tutmoch (xamir osh turi) va boshqa; 5) olchov va pul birliklarining nomlari: botmon, qadoq, chorak, tanob, chaqirim, pud, misqol, arjin va boshqa; 6) etnonimlar: barlos, qipchoq, oguz, jaloyir, qarluq, chigil, yagmo, arlot, nayman, ming, yuz va boshqa. Biz bu so'zlarni ularning sinonimlari orqali tushunishimiz va foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

Harbiy leksikaga oid bo'lgan istorizmlar va ularning tahlili. Harbiy tushunchalarning nomlari: navkar, sarboz, mingboshi, ellikboshi, sadoq (o'qdon), sovut, shamshir, qushbegi, mirzaboshi va shu kabilar. Bilamizki, hozirda ushbu so'zlardan deyarli og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham foydalanmaymiz. Lekin biz biror bir tarixiy jarayon haqida gapirmoqchi bo'lganimizda yoki biror bir tarixga oid asarni tahlil qilganimizda, undagi voqealarni tasvirlash uchun biz bu so'zlardan foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

Navkar (ot) tarixiy istorizm. Harbiy xizmatkor, askar.

Husayin Boyqaro Bog'i Shimol darvozasi yaqinidagi chodir ichida ikki-uch navkari bilan o'tirardi. M. Osim, Sehrli so'z.

Sarboz (ot) tarixiy istorizm. Amir, xon qo'shinining oddiy piyoda askari; askar, soldat.

Har uyda, har ko'ya mudhish jang bo'ldi, Qal'a sarbozlari hang-u mang bo'ldi. M. Shayxzoda.

Mingboshi (ot)tarixiy istorizm. 1. Daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi.

Bir guvohnoma olish uchun Ko'kcha dahamizning mingboshisi Normuhammadning mahkamasiga yugurdim. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari. 2.Qo'shin boshlig'i.

Qushbegi va Yusufbek hojilarning taklifi bilan Musulmonqul o'rniga O'tabboq qushbegi [Marg'ilon hokimi] mingboshi belgilanib, to'rtinchi kun Xudoyorxon, qo'shini bilan Qo'qonga qaytdi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

Sadoq (ot)tarixiy istorizm.Kamalak o'qlari joylanib, belga bog'lanadigan yoki yelkaga osib yuriladigan asbob; tirdon, o'qdon.

Qizlarning ham, yigitlarning ham bellarida o'q-yoy va sadoqlarida o'qlari bor edi. M. Osim, To'maris.

Shamshir (ot)tarixiy istorizm. Qilich.

Said Jalolxon g'ayratiga chidolmay, shamshir sug'urdi va havo-da o'ynatib, askarga farmon berdi. A. Qahhor, Bashorat.

XIV asr oxirida shamshir o'z o'rnini qilich va qilichsimon nayzaga bo'shatib berdi.

Jangchilar jangda foydalanadigan himoya vositalari. Qadimda sinar, dubulgca, qalqon, sovut va boshqalar himoya vositalari hisoblangan. Otlar ustiga maxsus yopinchiq bargustvon yopilgan, Birinchi Jahon urushidan boshlab po'lat kaska va shlemlar, kollektiv himoya vositasi sifatida to'p qalqoni, tank zirhlari va boshqalar qo'llaniladigan bo'ldi.

Sovut (ot)tarixiy istorizm. Tanani nayza, o'q, qilich zarbidan saqlash uchun kiyiladigan, po'lat simdan tayyorlangan harbiy kiyim.

Avazxon otasidan duo olib, sovutini kiyib, qalqonini eyniga [egniga] solib, o'n olti gaz isfihoni olmosini beliga osib jo'nadi. Malikayi ayyor.

Xulosa qilib aytish mumkinki,yuqoridagi harbiy istozimlarga xos bo'lgan so'zlar ham o'z ichida ma'lum uyaga mansubdirilar.Xususan,kasblarga doir harbiy istorizmlar,qurol-yarog'ga doir harbiy istorizmlar va shu kabilar.Bunday so'zlar anchani tashkil qiladi va ularni o'rganish,albatta,katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harbiy atamalarning yangi izohli lug'ati. Toshkent "Innovatsiya-Ziyo",2020

2. M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev, D.Muhamedova. O'ZBEK TILI PRAKTIKUMI,TOSHKENT - 2006

3. oriens.uz

4. savodxon.uz

cyberleninka.ru